



# MASHQ DAFTARI 5

4-sinf o'quvchilarining o'qish  
savodxonligini baholash bo'yicha  
o'tkaziladigan PIRLS xalqaro  
tadqiqotiga tayyorgarlik ko'rish  
uchun

Hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi/  
Viloyat/Toshkent shahar)

Tuman (shahar) \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_–sonli maktabning \_\_\_\_\_–sinf  
o'quvchisi \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_





## Yo'riqnoma

**Hurmatli o'quvchi!** Siz ushbu mashq daftarini bajarish uchun unda berilgan hikoya yoki maqolalarni o'qib chiqishingiz va o'qiganlaringiz yuzasidan savollarga javob berishingiz lozim bo'ladi. Ba'zi savollar osonroq va ba'zilari esa murakkabroq bo'lib tuyulishi mumkin. Siz barcha savollarga javob berishga harakat qiling.

Siz turli xil savollarga javob berishingiz kerak bo'ladi. Ayrim savollarga 4 ta variantdan iborat bo'lgan harflar bilan belgilanadigan javoblar keltiriladi. Siz o'zingizning fikringizga ko'ra to'g'ri javobga tegishli bo'lgan harfni belgilang.

1 – namunada shunday savol berilgan va namuna tarzda javobni qanday belgilash ko'rsatilgan.

### 1-namuna

1. Bir haftada necha kun bor?

☐ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Javobda "C" harfi belgilangan, chunki bir haftada 7 kun bor. Agarda sizning javobingiz to'g'riligiga ishonchingiz komil bo'lmasa, sizning nazaringizda eng to'g'ridek ko'ringan javobni tanlab, keyingi topshiriqqa o'tishingiz mumkin.

Agar siz tanlagan javobingizni o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, uning ustiga chizing va to'g'ri deb hisoblagan boshqa javobingizni belgilang hamda keyingi savolga o'ting. Buni qanday bajarishni 2 – namunada ko'rishingiz mumkin.

### 2-namuna

2. Bir haftada necha kun bor?

☒ A 2 kun

☐ B 4 kun

☒ C 7 kun

☐ D 10 kun

Ayrim vazifalarni bajarishda o'z javobingizni savolning tagidagi maxsus ajratilgan joyga yozishingiz kerak bo'ladi. 3 – namunada shunday savol keltirilgan.

### 3-namuna

3. Hikoyada aytilayotgan voqea yilning qaysi faslida bo'lib o'tgan?



---

---

3-namunada qalam va uning yonida 1 raqami tasvirlangan. Ushbu belgi mazkur savol uchun siz 1 ball olishingiz mumkinligini bildiradi.

4-namunada qalam va uning yonida 3 raqami tasvirlangan. Demak, ushbu savolning to'g'ri javobi uchun 3 ball olishingiz mumkin.

### 4-namuna

4. Aynan nima hikoyaning oxirini bir vaqtning o'zida ham qayg'uli ham zavqli qilmoqda? O'qiganlaringiz bo'yicha olgan ma'lumotlaringizdan foydalanib, o'z fikringizni tushuntirib bering.



---

---

---

---

Daftar ikki qismdan iborat. Har bir vazifani bajarishga 40 daqiqadan vaqt ajratiladi. Har bir vazifaning o'rtasida kichik tanaffus beriladi.

Hamma savollarga imkon qadar yaxshiroq javob berishga harakat qiling. Agar siz birorta savolga javob bera olmasangiz, keyingisiga o'tishingiz mumkin.



## To'xtang

O'qituvchining ruxsatisiz  
navbatdagi sahifani ochmang.



# KICHIK LOY BO‘LAGI

*muallif Diana Engel*

Eski minoraning yuqori qismida ustaxona bor edi.

Bu kulolchilik ustaxonasi bo‘lib, u yerda ko‘pgina rangli glazurlar, kulolchilik g‘ildiraklari, pishirish uchun pechka, quritish moslamasi va albatta loy bor edi. Deraza yonida og‘ir qopqoqli katta yog‘och sandiq turardi. Unda loy saqlanar edi. Quyi qavatning burchagida, eski loy bo‘lagi bor edi. U oxirgi marta qo‘lga olinib g‘ijimlanganligini zo‘rg‘a eslardi. Har kuni yog‘och qutining qopqog‘i ochilar edi. Qop yoki loy zuvalasini olish uchun qo‘llar cho‘zilar edi. Loy bo‘lagi ish bilan band bo‘lgan odamlarning quvnoq shovqinini eshitar edi.

“Qachon mening navbatim keladi?” - degan savol uni qiziqtirardi. Har kuni qorong‘u qutida o‘tar va loy bo‘lagining umidi so‘ngan edi.

Bir kuni ustaxonaga bir guruh bolalar jamoasi o‘z ustozini bilan kelib qolishdi. Ko‘plab qo‘llar qutiga uzatildi. Kichik loy bo‘lagimizga eng oxirida navbat yetdi, nihoyat u tashqariga chiqdi!


“Bu menga katta imkoniyat!” - deb o‘yladi u, ko‘zlari nurdan qamashib.

Bir bolakay loyni kulolchilik g‘ildiragiga qo‘ydi va uni bor kuchi bilan aylantirdi. “Bu zavqli!” – deb o‘yladi kichik loy bo‘lagi. Bolakay g‘ildirakni aylantirar ekan, loyni tepaga cho‘zishga urunib ko‘rdi. Loy bo‘lagi *biror-bir* buyumga aylanib qolishidan hayajonlanar edi. Lekin kosa yasashga urinishdan so‘ng bolakay to‘xtatdi. U loyni g‘ijimladi va uni yumaloq shaklga keltirdi.

“Tozalash vaqti bo‘ldi” - dedi o‘qituvchi. Ustaxona bolalarning pollarni artgan, tozalagan, yuvgan va quritgan ovozigina to‘ldi. Hamma joydan suv tomchilab turardi.

Bolakay deraza oldida bir bo‘lak loyni qoldirib, do‘stlariga qo‘shilishga shoshildi. Bir necha daqiqadan so‘ng ustaxona bo‘shab qoldi. Xona tinch va qorong‘u edi. Loy bo‘lagi xavotirga tushdi. U nafaqat yog‘och quti ichidagi namlikni sog‘inardi, balki xavf ostida qolganligini ham tushundi.

“Hammasi tamom, - deb o‘yladi u. – Endi men bu yerda toshga o‘xshab qotib ketgunumcha qurib, qolib ketaman”.



U ochiq deraza yonida turar, qimirlashga ham madori yo‘q edi va uni namlik tark etayotganini his qilar edi. Avval quyosh nuri qizdirardi, keyin tungi shamol esardi, natijada loy bo‘lagi toshday qattiq bo‘lib qoldi. U shunchalik qattiqlashdi-ki, hatto o‘ylashga ham qiynalar edi. U faqat umidi qolmaganligini bilar edi.

Lekin loy bo‘lagi uning qaysidir ichki qismida saqlanib qolgan kichik suv tomchisini chiqarib yuborgisi kelmas edi.

“Yomg‘ir”, - deb o‘yladi u.

“Suv”, - deb xo‘rsindi.

U nihoyatda umidsiz quruq tanasidan “Iltimos”, – degan so‘zni zo‘rg‘a ayta oldi.

Yaqindan suzib o‘tayotgan bulut kichik bir loy bo‘lagiga achindi va ajoyib hodisa ro‘y berdi. Ochiq derazadan yomg‘irning yirik tomchilari unga tusha boshladi.

Butun tun davomida yomg‘ir yog‘di va ertalab loy bo‘lagi oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa xuddi shunday yumshoq edi.

Ustaxonada ovozlar eshitila boshladi.

“Ey, yo‘q!” - deb xitob qildi ayol. U kulol edi va ko‘pincha ushbu ustaxonadan foydalanar edi. “Kimdir dam olish kunlari derazani ochiq qoldiribdi! Endi bu yerdagi hamma narsani tozalashimiz kerak. Men sochiqni topgunimcha sen loy bo‘lagi bilan ishlab tur”, - dedi u qiziga. Qizaloq deraza yonida turgan loy bo‘lagini ko‘rdi.

“Menga aynan shu loy kerak edi”, - dedi u. U loyni tezda yumshatib, turli shakllar bera boshladi. Loy bo‘lagiga uning barmoqlari ajoyib tuyuldi.

Qizaloq ish paytida o‘yga cho‘mardi va uning qo‘llari maqsad bilan harakatlanardi. Kichik loy bo‘lagi uni dumaloq, ichi bo‘sh bir narsaga aylantirishayotganini his qilar edi. Bir necha chimchilashlardan so‘ng u tutqichlarga ega bo‘ldi.



“Oyijon, oyijon”, deb chaqirdi qizaloq, “Men chashka yasadim!”

“Ajoyib!” dedi onasi. “Uni tokchaga qo’y, biz uni pechkada qizdiramiz. So’ngra uni sirlashing, keyin esa o’zingga yoqqan rangga bo’yashing mumkin bo’ladi”.

Ko’p o’tmay, kichkina chashka yangi uyga ko’chib o’tishga tayyor edi. Endi oshxonadagi tokchada boshqa stakan, likopcha va krujkalar yonida yashamoqda. Ularning barchasi xilma xil, ba’zilari judayam chiroyli.

“Nonushtaga!” - deya chaqirdi onasi, stolga yangi chashkani qo’yib, ichiga issiq shokolad quyarkan.

Qizaloq uni ehtiyotkorlik bilan ushladi. Loy bo’lagi yangi shaklining silliq chiziqlarini his qilib, o’zini naqadar baxtli his etdi. U o’z ishini naqadar yaxshi bajardi!

Kichkina chashka mag’rur turardi. “Va nihoyat, nihoyat, men qandaydir ahamiyatga egaman”.



## Savollar: Kichik loy bo'lagi

1. Quyidagi gaplarni hikoyada sodir bo'lgan voqelik ketma-ketligida raqamlab chiqing. 1-raqam siz uchun qo'yilgan.

\_\_\_ Yomg'ir loy bo'lagini nam va yumshoq holatga keltirdi.

\_\_\_ Bolakay loy bo'lagini guldonga aylantirmoqchi bo'ldi.

\_\_\_ Qizcha loy bo'lagidan chashka yasadi.

\_\_\_ Loy bo'lagi qurib qoldi.

1 Loy bo'lagi yog'och qutida yotgan edi.

2. Nima uchun loy bo'lagi yog'och qutida uzoq vaqt davomida turgan edi?



---

---

3. Hikoya boshida loy bo'lagi nimani orzu qilgan edi?



---

---

|   |
|---|
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

|   |
|---|
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

|   |
|---|
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

4. Nima uchun oxir oqibat loy bo'lagini yog'och qutidan olishdi?
- (A) Qolgan barcha loy bo'laklari allaqachon ishlatilgan edi.
  - (B) U tepada, boshqa loy bo'laklarining ustida turgan edi.
  - (C) Bolakay ushbu loy bo'lagini oldi, chunki unga judayam yoqdi.
  - (D) O'qituvchi bolakayga ishlashi uchun unga ushbu loy bo'lagini olishni aytdi.

5. Bolakay qaysi ishni e'tiborsizlik bilan bajardi?
- (A) U loyni kulolchilik charxida qoldirdi.
  - (B) U charxni bor kuchi bilan aylantirdi.
  - (C) U loyni deraza yonida qoldirdi.
  - (D) U loyni g'ijimladi va urdi.

6. Bolakay loy bo'lagini xavf ostida qoldirdi. Xavf nima edi?



\_\_\_\_\_

|   |
|---|
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

7. Bolakay kulolchilik ustaxonasidan ketishi bilanoq loy bo'lagi o'zini qanday his qildi?

- (A) mamnun
- (B) qo'rqqan
- (C) g'azablangan
- (D) mag'rur

8. Uzoq vaqt davomida deraza yonida yotganidan keyin loy bo'lagi bilan qanday ajoyib hodisa yuz berdi? Nega bu loy bo'lagi uchun shunchalik ajoyib hodisa bo'ldi?



---

---

---

9. Qizaloq nima qilishni xohlayotganligini bilishi hikoyadagi qaysi so'zlar orqali ko'rsatib berilgan?

- (A) «uning barmoqlari ajoyib tuyildi»
- (B) «qizaloq deraza oldida loy bo'laklarini ko'rdi»
- (C) «qizaloq uni ehtiyotkorlik bilan ushladi»
- (D) «uning qo'llari maqsad bilan harakatlanardi»

|   |
|---|
| 2 |
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

10. Hikoyaning boshida va oxirida loy bo'lagi qanday hissiyotlarni boshdan kechirganini tavsiflang. Uning hissiyotlari nima uchun o'zgarganligini tushuntiring.



---

---

---

11. Qizaloq - ushbu hikoyadagi muhim shaxs. Sodir bo'lgan hodisalarda nima uchun uning ahamiyati muhimligini tushuntiring.



---

---

---

12. Hikoya muallifi loy bo'lagini tirik inson sifatida tasvirlamoqda. U sizning nimani tasavvur qilishingizga harakat qilmoqda?

- (A) yomg'irda qolish qanday ekanligini
- (B) loy bo'lagi qanday his qilishi mumkinligini
- (C) loy bo'lagi bilan ishlash qandayligini
- (D) biror narsa yasash qandayligini

|   |
|---|
| 3 |
| 2 |
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

|   |
|---|
| 2 |
| 1 |
| 0 |
| 8 |
| 9 |

13. Ushbu hikoyaning **asosiy** g'oyasi nima?
- Ⓐ Odamlar ham loyga o'xshab osongina shaklga kirishi va o'zgarishi mumkin
  - Ⓑ Dunyoda ko'plab baxtsizliklar bor
  - Ⓒ Hammasi baxtlidir qachonki o'z maqsadini topa olsa
  - Ⓓ Kulolchilik – bu dunyoda ezgulik qilishning eng yaxshi usuli



## To'xtang


O'qituvchining ruxsatisiz navbatagi sahifani ochmang.

# Ajoyib sakkizoyoq



Sakkizoyoqlar tanalari yumaloq shaklda bo'lib, bo'rtib chiqqan katta ko'zlari va sakkizta uzun qo'llari bo'lgan dengiz jonzorlaridir. Ularning qo'llari juda baquvvat bo'lib, ularda bir qator kuchli so'rg'ichlar joylashgan bo'ladi. Sakkizoyoqlar dunyoning barcha okeanlarida yashaydi, ayniqsa, ular tropik iqlimdagi iliq suvlarda yashashni yoqtiradilar. Ular odatda sevimli ozuqalarini topishlari mumkin bo'lgan okean tubida qolishadi. Ular dengiz qisqichbaqalari, krevetka qisqichbaqalari va mayda baliqlar bilan oziqlanishni yoqtirishadi. Ular o'z o'ljalarini so'rg'ichlari bilan tutib olishgandan keyin ozuqani og'izlariga soladilar.

Sakkizoyoqlar odatda toshlardan yasalgan boshpanalarida yolg'iz yashaydilar. Ba'zida sakkizoyoqlar boshpanalarida xavfsizlikni ta'minlash uchun yopib qo'yilishi mumkin bo'lgan toshli "eshiklarni" ham quradilar.



***Sakkizoyoq xavfdan qochish uchun siyoh purkaydi.***



***Sakkizoyoq o'z dog'lari bilan dushmanlarini qo'rqitadi.***

## ***Xavfdan qochish***

Sakkizoyoqlar xavfdan qochib qutula oladilar, chunki ular tez suzadilar va har qanday tajovuzkor dushmanlariga o'zlari ishlab chiqaradigan qora siyohli moddani purkab sachratishlari mumkin. Bu ularga tezroq qochib ketishlariga imkon beradi.

Sakkizoyoqlar, shuningdek, o'z qiyofalarini o'zgartirish bo'yicha juda usta hisoblanadilar. Ular atrofdagi toshlar, qumlar va marjonlarning rangiga aralashib ketib, ko'rinmas bo'lib qolishlari uchun o'z terilarining rangini pushti, ko'k, jigarrang yoki yashil rangga o'zgartirishlari mumkin. Sakkizoyoqlar suv o'tlari bilan qoplangan g'adir-budur toshlarga o'xshab ko'rinishlari ham mumkin. Shuningdek, ular bir necha soniya ichida, ko'rganda ishtaha buziladigan yoqimsiz bo'lgan narsaga o'xshab ko'rinish uchun terilarida turli xil dog'lar, chiziqlar va toshmalarni hosil qilishlari mumkin.

Sakkizoyoqlar toshlar va marjonlarning darz ketgan yoriqlariga sirg'alib kirib olib yashirinishlari mumkin. Ularda umurtqalar bo'lmaydi. Aslida, ularda umuman suyaklar bo'lmaydi va butunlay yumshoq bo'ladilar. Suyaklari bo'lmaganligi uchun, sakkizoyoqlar suv kabi oqishlari va butun tanalarini juda kichkina joylarga sig'dirishlari mumkin. Ular siz kutmagan joylarda namoyon bo'lishlari bilan mashhur. Sakkizoyoqlar chig'anoqlarning ichida, olimlarning jihozlarida va dengizga tashlab ketilgan shisha idishlarning ichidan topilgan.


Ba'zan sakkizoyoqlar yashirinish uchun hatto chig'anoqlardan foydalanadilar. Ular so'rg'ichlari bilan chig'anoqlarni olishadi. Keyin, chig'anoqlardan tashqariga qaragancha qo'llari bilan tanalariga o'rab oladilar. O'tib ketayotgan dushmanlari sakkizoyoqni shunchaki eski chig'anoqlar uyumi deb o'ylaydilar.



*O'zini chig'anoq ostiga yashirgan sakkizoyoq.*



*Frida laqabli sakkizoyoq yemish solingan shisha idishni ochyapti.*



*Skvirt laqabli sakkizoyoq o'z "san'at asarini" yaratmoqda.*

## Biror narsani qilishni o'rganish

Frida laqabli sakkizoyoq Germaniyadagi akvariumda yashagan. Unga qarab turuvchi xodimlarning yemish solingan shisha bankalarni ochayotganlarini ko'rib, Frida bankalarni o'zi mustaqil ochishni o'rganib olgan. Banka qopqog'ini tanasiga bostirib, bankani qo'llari bilan ushlab olar edi va qopqoqni burab ochish uchun suyaksiz tanasini burardi. U faqat sevimli yemishlari bo'lgan qisqichbaqalar va krevetka qisqichbaqalari solingan bankalarni ochar edi. U har kuni beriladigan baliqlar solingan bankalarga esa e'tibor bermas edi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi dengiz mavjudotlari markazida yashaydigan Skvirt laqabli sakkizoyoq bo'yoq bilan rasm chizishni o'rganib olgan. U rasm chizadigan bo'z matoga tayanch qo'llarini harakatlantirib, bo'yoqni sepa olgan. "San'at asari" sakkizoyoqni akvariumda boqish uchun ketadigan mablag'ni qoplash maqsadida sotilgan.

## Sakkizoyoqlarning bandligini ta'minlash

Odamlar akvariumda yashaydigan sakkizoyoqlarni tabiiy muhitda tomosha qilishni yoqtirishadi. Lekin, sakkizoyoqlar tez zerikib qoladigan jonzorlar bo'lganligi uchun akvarium xodimlari o'zlarining sakkizoyoqlarini biror narsa bilan band bo'lishlarini ta'minlaydigan usullarni o'ylab topishlari kerak. Masalan, ular sakkizoyoqlarga boshqotirma va o'yinchoqlarni beradilar.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi akvariumda Sammi laqabli sakkizoyoq, ikkita tomoni buralib bir-biriga birlashtirib qo'yiladigan plastik koptok bilan o'ynashni yaxshi ko'rar edi. Unga qarab turuvchi xodim koptokning ichiga yemishni qo'yar va Sammi yemishni olish uchun ko'ptokning ichini ochar edi. Yemishni yeb bo'lgach, Sammi yana ko'ptokning ikkita tomonini birlashtirish uchun qaytarib burar edi.



*Sakkizoyoq akvariumda o'yinchoq o'ynamoqda.*

## O'z boquvchilarini tanish

Har xil o'yinchoq va boshqotirmalarni o'ynashdan tashqari, sakkizoyoqlar boquvchilari ularni ushlaganda ular bilan o'ynab vaqt o'tkazishni yoqtiradilar. Boquvchilar ularga yemish olib kelganlarida yoki ularning boshlarini silaganlarida, sakkizoyoqlar xursand bo'lganlaridan qizarib ketadilar. Sakkizoyoqlar qo'llari bilan tanalarini baland ko'targan holda oldinga egilib, o'z boquvchilarini kutib olishlari ham mumkin. Ma'lumki, sakkizoyoqlar o'z boquvchilarining e'tiborini jalb qilish uchun orqa "oyoqlarida", ya'ni orqa tomonda joylashgan qo'llari bilan sakrab, old qo'llarini silkitib turadilar.

Sakkizoyoqlar do'stlashishni xuddi yemishni xush ko'rganlaridek yoqtiradilar. Sakkizoyoqlar ovqatlanishni tugatganlaridan so'ng, bir qo'llari bilan, keyin esa ikkinchi qo'llari bilan boquvchilarining qo'llarini panjalaridan yelkalarigacha o'rab oladilar. Sakkizoyoqlar ohista so'rg'ichlari bilan yopishgan holda o'z boquvchilari bilan bir-birlarining qo'llarini tutib turadilar.

*O'z boquvchisiga  
qo'llari bilan  
yopishib olgan  
sakkizoyoq.*



1. Maqolaga ko'ra, sakkizoyoqlar haqidagi qaysi ma'lumotlar to'g'ri?

To'g'ri kelgan **barcha** javoblarni belgilang.

Ularning tanalari yumaloq bo'ladi. .... ☐

Ularning sakkizta uzun qo'llari bo'ladi. .... ☐

Ular faqat okeanning sovuq joylarida yashaydilar. ☐

Ular qisqichbaqalarni va mayda baliqlarni  
yeyishni yoqtiradilar. .... ☐

Ular yemishlarini og'izlarida tutadilar. .... ☐

2. Sakkizoyoqlar o'z boshpanalariga eshik yasash uchun nimadan foydalanadilar?



\_\_\_\_\_

3. Maqolada sakkizoyoqlarga "o'z qiyofalarini o'zgartirish bo'yicha juda usta" deb ta'rif berilgan.

Bu nimani anglatadi?

- (A) Ular biron-bir narsaga o'xshashlari mumkin.  
(B) Ular juda tez suzadilar.  
(C) Ular qora siyohni purkab sachratishlari mumkin.  
(D) Ular turli xil shaklda bo'lishlari mumkin.

4. Sakkizoyoqlarda suyaklar bo'lmaydi. Bunday tuzilishlari ularga nima qilishga yordam beradi?

- (A) Boshqa sakkizoyoqlar bilan yashirinishga
- (B) Qoyalarda tayanib turishga
- (C) Juda kichkina joyga o'zlarini sig'dirishga
- (D) Suv o'tlariga o'xshashga

5. Sakkizaoyoqlar odatiy bo'lmagan joylarda o'zlarini ko'rsatishlari bilan mashhur.

Matndan bitta misol keltiring.



\_\_\_\_\_

6. Sakkizoyoqlar o'z dushmanlaridan qochib omon qolishlaridagi ikkita usulni keltiring.



1. \_\_\_\_\_



2. \_\_\_\_\_

7. Frida laqabli sakkizoyoq nima qilishni o'rganib oldi?



\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

8. Skvirt laqabli sakkizoyoq nima qilishni o'rganib oldi?

- Ⓐ Akvarium rasmlarini chizishni
- Ⓑ Bo'z matoga tayanch qo'llarini harakatlantirib, bo'yoqni sepishni
- Ⓒ Bo'z matoga o'z siyohini bo'yoqqa o'xshatib sepishni
- Ⓓ Bo'yash uchun ko'p qo'llarini barmoqlar sifatida ishlatishni

9. Yozuvchining fikriga ko'ra, Skvirt laqabli sakkizoyoq yaxshi suratlar yaratadimi?

Tanlovingizni bildiring.

\_\_\_\_\_ Ha

\_\_\_\_\_ Yo'q

Matndan bunga sabab keltiring.



---

---

10. Nima uchun akvariumdagi ishchi xodimlar sakkizoyoqlarga boshqotirmalarni beradilar?



---

---

11. Sammi laqabli sakkizoyoq qaysi o'yinchoqni o'ynashni yoqtiradi?



\_\_\_\_\_

12. Qanday ikkita narsa sakkizoyoqlarning o'z boquvchilarini ko'rganda xursand bo'lganliklarini ko'rsatadi?



1. \_\_\_\_\_



2. \_\_\_\_\_

13. Sakkizoyoqlar boquvchilari ularni ushlashlarini yoqtiradilar. Sakkizoyoqlar buni ko'rsatish uchun nima qiladilar?

- ☐ (A) Boquvchilari bilan boshqotirma ustida ishlaydilar.
- ☐ (B) Qornilari och bo'lganda sakrab turadilar.
- ☐ (C) Qo'llari bilan o'z boquvchilarning qo'llarini ushlab, yopishib oladilar.
- ☐ (D) Hamma yemishlarini qoldirmasdan yeb qo'yadilar.

14. Yozuvchi sakkizoyoqlarni “ajoyib” deb hisoblaydi. Ular akvariumda nima qilishni o‘rganib olishgani uchun ularni ajoyib deb atash mumkin bo‘lgan uchta misolni keltiring.



1.



2.



3.

15. Maqolada o‘qiganlaringizdan kelib chiqib, akvariumda yashash sakkizoyoqlarga yaxshi deb hisoblaysizmi?

Javobingizni belgilang.

\_\_\_ Ha

\_\_\_ Yo‘q

Javobingizni izohlash uchun bitta sababni keltiring.





## **To'xtang**

O'qituvchining ruxsatisiz  
navbatdagi sahifani ochmang.

**“Kichik loy bo‘lagi” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?**

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐

**“Ajoyib sakkizoyoq” matnini o‘qish sizga qanchalik yoqdi?**

*Faqat **bitta** aylanani bo‘yang.*



Menga juda yoqdi----- ☐



Menga biroz yoqdi----- ☐



Menga unchalik yoqmadi ----- ☐



Menga umuman yoqmadi----- ☐









